

## **BOLANING MAKTABDA MUVAFFAQIYATLI O'QISHINING PSIXOLOGIK OMILLARI**

***Bosimova Munira Abdug'ani qizi.***

*Jizzax viloyati Zomin tumani MMTBga qarashli*

*43-sonli umumta'lim maktabi amaliyotchi psixologi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada respublikamizda faoliyat olib borayotgan maktab amaliyotchi psixologlarning egallashi lozim bo'lgan maxsus qobiliyat xususiyatlari va muataxassis sifatida maktabdagi va jamiyat hayotidagi o'rni muhokama qilingan. Shuningdek, maktab amaliyotchi psixologlarning bolalarni maktabda muvaffaqiyatli o'qishini tashkil etishda maxsus qobiliyatlari, axloqiy va kasbiy tamoyillari yoritib berilgan.

**Kalit so'zlar:** psixolog, amaliyot, jamiyat, kasb, professional psixologik maslahat, , psixologik xizmat, korreksiya.

Bolaning maktabda muvaffaqiyatli o'qishi ularning sog'lig'iga ,qobilyatiga individual xususiyatlariga ,oilaviy muhitga pedagogning mahoratiga, va ko'p jihatdan maktabga chiqish oldidan ko'rilgan shaxsiy va motivatsionni tayyorgarligiga bog'liq.6-7 yoshli bola nerv sistemasini mustahkamlash ,ularni surunkali kasaliklardan xalos etish,ko'rish eshitish qobilyatiga alohida e'tibor berish ,shuningdek umurtqa pog'onasining to'g'ri rivojlanishiga ahamiyat berish ,nihoyatda muhim. Bu yoshdagi bolalar bilan ishlovchi kattalar bolaning hali o'sish va rivojlanishda ekanligini hisobga olishlari zarur.Masalan bolani yozishga majburan o'rgatishhali barmoq muskullari to'liq rivojlanmaganligi sababli ularga ma'lum darajada zarar yetkazishi,bolaning chiroyli yoza olmasligi esa,o'z o'zidan uning o'ziga bo'lgan ishonchining tushib ketishiga va bu esa maktabga bo'lgan qiziqishning kamayishiga sabab bo'lib qolishi mumkin. Bu yoshdagi bolalar o'rtog'ining nuqson va kamchiliklarini mhammaning oldida ayta olish xususiyatiga ega bo'ladilar, bu esa o'zini tutishi ,hatti harakatlari ,axloqi jihatidan tanqidga uchrayotgan bolani o'rtoqlari jamoasiga qo'shilishdan bosh tortishga va umuman

maktabga kelishni istamaslikka sabab bo'lishi mumkin. Shu sabab bolani ustozlari va o'rtoqlari tomonidan tanqidga uchramaydigan darajada odob axloq qoidalarga o'rgatilishi lozim. Bolaning maktabda o'qishni muvaffaqiyatli o'zlashtirishda, yangi kun tartibiga amal qilishida darslarni qunt bilan egallashida, uyga vazifalarni o'z vaqtida bajarishida uning irodasi kuchli va barqaror bo'lishi muhim hisoblanadi. Iroda xususiyatining mustahkam shakllanishi bola mehnatga o'rgatilganligi va sport mashg'ulotlari bilan shug'ullanganligiga bog'liq.

6-7 yoshli bolalarning o'qishidagi asosiy qiyinchilik shundaki, ko'pincha bunday yoshdagi bolalar o'qtuvchini uzoq vaqt tinglay olmaydi, bunga sabab aynan shu yoshdagi bolalarda ixtiyoriy diqqatning rivojlanmaganligida emas, balki kattalar bilan muloqatga kirisha olish xususiyatiga ham bog'liq. Chunki shu xususiyat rivojlangan bolalar o'zini erkin tutib dars jaroyonida tushunmay qolgan va o'zini qiziqtirgan narsalar haqida so'ray oladilar. Vaholanki ularning o'qishga bo'lgan qiziqishi toboro ortib boraveradi. Demak bolaning maktabga tez moslashishi va muvaffaqiyatli o'qishida oilada ota ona va kattalar tomonidan bolaning eshitilganligi unga butun bir alohida shaxs sifatida qaralib "men"i hurmat qilinganligi ahamiyati juda katta. Bola 6-7 yoshlarga to'lgandan so'ng unda maktabga borish ehtiyoji tugiladi. Aynan mana shu xoxish va ehtiyoj motivi to'g'ri berilgan bo'lsa o'quvchi maktabga moslashib, o'qishni muvaffaqiyatli davom etiradi.

O'quv motivi shaklga moddiyatga bog'langan bo'lsa, o'quvchi maktabga borgandan so'ng bir oylar ichida maktabdan zerikib, majburligidan hamma maktabga borish kerkligi uchun bora boshlaydi. Bazi bolalar maktabga bormaslik istagini bildirib, bormaslik uchun harhasha qila boshlaydi. Shaklga bog'langan o'quv motivi quydagicha bo'lishi mumkin: **"Men maktabga borsam menga ruchka, qalam, daftar va chiroyli fo'rma olib berishadi"** "Maktabda o'rtoqlarim ko'p bo'lishadi va men ular bilan mazza qilib o'ynayman" **"Maktabda uxlatishmaydi"** **"Maktabga borsam menga prezident sumkasi va yana sovg'alar berishadi"** Bunday motivlar odatda bolalarga ota onalar tomonidan singdiriladi. Parta stullar, doska xar xil devorga chizilgan rasmlar xullas maktabning tashqi va ramzlari boshida qiziqtirgan bo'lsa tez orada barcha ko'rinish odatiy holga aylanib qoladi. Va o'quv motivi bo'lib xizmat qilgan tashqi ramzlar endi bolani

qiziqitirmay qo'yadi va bola maktabga borish istagi so'nib qoladi. Bolaning bunday holatga kelib qolmaslik uchun motiv bilishga o'rganishga qaratilgan bo'lishi lozim.”**Men otamga o'xshagan bo'lishim uchun o'qishim kerak.” “ Yozishni juda yaxshi ko'raman” “Maktabda qiytin misollarni ham yechishni o'rgatadi” “ O'qishni o'rganib olsam juda ko'p qiziqarli ertaklarni o'zim o'qib olardim”** Bunday motiv maqsad bilan yangi hayot ostonasiga qadam qo'ygan bola maqsadiga erishish yo'lida to'xtamay o'qib o'rganadi.

#### REFERENCES:

1. Boymurodov, N. (2008). Amaliy psixologiya. Yangi asr avlodi.
2. Davletshin, M. (2002). Umumiy psixologiya. TDPU.
3. Suyarov, A. (2017). The present condition of tourism in Samarkand, the results of research survey from tourists in region. *SCOPE Acad. HOUSE BM Publ.* 103, 41–46.
4. Samarova Shoxista Rabidjanovna, Rakhmonova Muqaddas Qahramanovna, Mirzarahimova Gulnora, Ikromovna, Maratov Temur Gayrat ugli, Kamilov Bobir Sultanovich. (2020). Psychological aspects of developing creative personality and the concept of reduction of creativity to intellect. *JCR.* 7(17): 498-505. doi: 10.31838/jcr.07.17.69
5. Jabbor Usarov. (2019, June). Using Teaching Methods for Development Pupil Competencies. *International Journal of Progressive Sciences and Technologies*, 15(1), 272- 274.
6. Jabbor Eshbekovich Usarov. (2017). Formation Competence at Pupils as the Factor of Increase of Education’s Efficiency. *Theoretical & Applied Science*, 53(9), 79-82.